

**“O‘zagroinspeksiya” tomonidan 2024-yilning I yarim yilligida amalga
oshirilgan ishlar to‘g‘risida tahliliy
M A ‘ L U M O T**

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan hisobot davrida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishi va ijrosi yuzasidan 9 058 ta tekshirishlar o‘tkazilgan.

Tekshirishlar davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan Inspeksiya vakolati doirasida huquqbuzarlarga nisbatan 4 052 ta holatda 643,4 mln so‘m ma‘muriy jarimalar qo‘llanilgan.

Shu bilan birga, 1 747 ta taqdimnomalar tegishli tashkilot va idoralarga kiritildi, 853 ta materiallar qonuniy qaror qabul qilish uchun sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanishni nazorat qilish sohasida 1 418 ta o‘tkazilgan o‘rganishlar davomida jami 274,2 gektar yerlarda qonunbuzilish holatlari aniqlanib, ularga nisbatan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarini o‘zboshimchalik bilan qishloq xo‘jaligi muomalasidan chiqarilganligi sababli 184 mlrd 854 mln so‘m miqdorida qishloq xo‘jaligiga yetkazilgan zarar hisoblandi.

Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan 820 ta prokuratura organlariga 341 ta IIV hududiy bo‘linmalariga chora ko‘rish uchun, 209 ta holatda boshqa tashkilotlarga, 9 ta holatda yerdan foydalanuvchilarga ogohlantirish xatlari yuborilgan va 39 ta holatda sudga davo arizalari kiritildi.

2024 yil hosili uchun urug‘lik paxta yetishtirish huquqiga ega bo‘lish maqsadida 3 330 ta subyektlar tomonidan 120,4 ming gektar maydonga hujjatlar topshirilgan. Shundan, 2 945 ta subyektlar 95,2 ming gektar maydonga tanlov natijalariga ko‘ra g‘olib deb topilib, 382 ta subyektlarning 25,1 ming gektar maydonlari tanlovdan o‘tmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-dekabrda PQ-391-sonli qarori ijrosi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklari joriy yilda 101,4 ming gektar maydonga g‘o‘zaning xorijiy nav va duragaylarini ekish rejalashtirilib, amalda 4808 ta xo‘jalik subyektlari tomonidan 95,8 ming gektar maydonga ekildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-106-sonli qarori ijrosi bo‘yicha 2024-yil hosildan urug‘lik don yetishtiruvchi 2 956 nafar subyektlarning 85,8 ming gektar urug‘lik g‘alla maydonlarida 4 maratoba monitoring kuzatuv ishlari o‘tkazildi. Monitoring natijasida 4,3 ming gektar urug‘lik maydonlar turli sabablarga ko‘ra urug‘lik hisobidan chiqarildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 641-sonli qaror Nizomiga muvofiq joriy yilda 122 ta tumanda tuzilgan aprobatsiya komissiyalari tomonidan 2 894 nafar urug‘chilik xo‘jaliklarining 82,7 ming gektar maydonlarida dala

aprobatsiya ko'rigi o'tkazilishi nazorat qilib borildi, natijada 2 685 nafar xo'jaliklarning 66,5 ming gektar yoki 80,5 foiz maydoni yaroqli hamda qolgan 16,1 ming gektar yoki 19,5 foiz maydonlar yaroqsiz deb topildi.

Aprobatsiya ko'rigida yaroqli deb topilgan maydonlardagi urug'lik g'allani o'rish ishlari nazoratga olingan bo'lib, bugungi kunga qadar 57,3 ming gektar yoki 68,2 foiz maydonlarda urug'lik g'allani o'rish ishlari bajarilgan.

Joriy yilda 29 ta yog'-moy korxonalarida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida 13 tasi paxta texnik chigitini qayta ishlaydigan yog'-moy korxonalari qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiqligi, 16 tasi belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlandi va Respublika tovar-xom ashyo birjasiga xatlar kiritildi.

Respublikadagi 196 ta don qabul qilish quvvatiga ega korxonalarda mavjud 4 203 ming tonna don saqlash sig'implari, 1 680 ming kv.m asfalt maydonlari, 197 ta sinov laboratoriyalari, 278 ta avtomobil va vagon tarozilari, 123 ta don tozalash mashinalari va 725 ta transporterlar hamda don tushirish moslamalari mavsumga tayyorligi monitoring qilinib, tegishli xulosalar rasmiylashtirildi.

Don qabul qiluvchi korxonalar va shahobchalarda 2022-2023 yillar hosilidan saqlanayotgan bug'doy miqdorlari hajmiy o'lchovdan o'tkazish natijalariga ko'ra, jami 48 ta, shundan, "O'zdonmahsulot" AK tizimidagi 35 ta, xususiylashtirilgan 9 ta don korxonalari va 4 ta g'allachilik klasterlarida jami 2 375,4 ming tonna, shundan Jamg'arma hisobida 1 725,1 ming tonna, vaqtincha saqlashda 50,3 ming tonna va davlat zaxirasida 600 ming tonna bug'doy doni hajmiy o'lchanib, umumlashtirilgan ma'lumotlar Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi.

Davlat ehtiyojlari uchun saqlanayotgan bug'doy o'rnatilgan tartibda xatlovdan o'tkazilib, "nol"ga tozalash ishlari "O'zagroinspeksiya", "O'zdavzahira" qo'mitasi hamda "O'zdonmahsulot" AK tomonidan don korxonalarida 2022-2023 yillar hosilidan davlat resursida saqlanayotgan 63 ta korxonalar va shahobchalardagi saqlanayotgan 642 172 tonna bug'doy xatlovdan o'tkazilib, Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyundagi 325-sonli qarori ijrosi yuzasidan 2024 yil uchun davlat resursiga qabul qilingan boshhoqli don 1 iyul holatiga jami fizik vaznda 2 mln. 422 ming 550 tonna boshhoqli don qabul qilindi.

Shundan, tayyorlangan bug'doyning 2 mln. 226 ming 654 tonnasi yoki 92,7 foizi 3-sinfga, 5 596 tonnasi yoki 0,2 foizi 4-sinfga, 170 344 tonnasi yoki 7,1 foizi 5-sinfga qabul qilinishiga erishildi.

Don topshiruvchi va qabul qiluvchi korxonalar o'rtasida donning sifati va sinfi bo'yicha yuzaga kelgan 157 ta nizoli masalalar joyida hal etildi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida 14,3 ming tonna tabiiy yo'qotish miqdori iqtisod qilindi.

Shu bilan birga, Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalarini texnik holatini ulardan foydalanish samaradorligi, shuningdek, servis va ta'mirlash xizmatlarining sifati ustidan qat'iy nazorat olib borilmoqda.

Xususan, 15 338 dona qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l qurilish texnikalari davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Texnikalarga 16 278 dona davlat raqam belgisi, 40 382 dona texnik pasport va 6 937 dona texnik guvohnoma rasmiylashtirildi va 83 954 dona texnika yillik texnik ko'rikdan o'tkazildi.

Bahorgi dala ishlarida qatnashadigan 163 mingga yaqin qishloq xo'jaligi texnikalari hamda 3 176 dona kombaynlarni mavsumga tayyorlash ishlari tashkil etilib, ularni sifatli ta'mirlash ishlari ustidan nazorat o'rnatildi.

Traktorchi-mashinistlarni tayyorlash va qayta tayyorlash yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlari tamomlagan 7 821 nafar yoshlarga traktorchi-mashinist guvohnomasi berildi.

Yagona interaktiv davlat xizmati portali orqali texnikalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish xizmatini ko'rsatish amaliyotga joriy etildi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali orqali Markaziy apparat nomenklaturasidagi bo'sh ish o'rinlariga o'tkazilgan tanlovlar orqali 111 nafar nomzodlar lavozimlarga tayinlangan.

Shuningdek, lavozimlarga tayinlangan va ozod etilgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha "Yagona milliy mehnat tizimi" dasturiy apparat kompleksiga va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan kadrlar bilan ishlash faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha dasturiy ta'minot "HRM.ARGOS.UZ" platformasiga xodimlar to'g'risida ma'lumotlar, xodimlarning malakasi va salohiyati, erishgan natijalari kiritilmoqda.